

SIRDARYO VILOYAT QISHLOQ XO'JALIGI VA UNING

RESPUBLIKADA TUTGAN O'RNI

Umirzaqov Oybek Alimqul o'g'li,

Guliston davlat universiteti , Ekologiya va geografiya
kafedrası o'qituvchisi.

e-mail: oybekumirzaqov0@gmail.com

Ismailov Xusan Muhammadjon o'g'li,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish
metodikasi(geografiya) 2-bosqich magistranti

e-mail: xusanismoilov1996@gmail.com

Annotatsiya: Sirdaryo viloyati respublikamizning asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan va shu maqsadda tashkil etilgan ma'muriy hududi hisoblanadi. Biroq hozirgi vaqtda, xususan sobiq Ittifoq parchalanishi va "umumittifoq mehnat taqsimoti"ning barham topishi bilan viloyat iqtisodiyotida jiddiy muammolar yuzaga keldi. Bunday sharoitda, eng avvalo, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, paxta yakka hokimligini yo'qotish, ishlab chiqarishning yuqori texnologik pog'onalarini tashkil qilishdek jiddiy vazifalar paydo bo'ldi.

Kalit so'zlar: Agrosanoat, qishloq xo'jaligi, intensiv, ekstensiv, donli ekinlar, yalpi hududiy mahsulot, qishloq xo'jaligi yerlari, zovur-kollektor tizimlar.

Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarish kuchlari, boshqa hududlardan farq qilgan xolda, asosan bir asr doirasida shakllana boshlagan. Hozirgi vaqtda u ko'proq qishloq xo'jaligiga **ixtisoslashgan rayon qisoblanadi. Viloyat yalpi hududiy maxsulotining 41,7** foizini qishloq xo'jaligi beradi. Agroiqtisodiyotning bunday katta ulushi bo'yicha Sirdaryo Surxondaryo viloyatidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Sanoat ishlab chiqarishining xissasi Jizzax, Surxondaryo, Xorazm va Namangan viloyatlaridan yuqori, qurilish xam xudsi shunday o'rtacha mavqega ega. Boshqa viloyatlar qatorida bu yerda ham kichik biznes rivojlanib bormoqda. U 2013-yilda yalpi hududiy maxsulotning 84,1 foizini ta'minlagan. Bu respublikada eng yuqori ko'rsatkich. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaka



iqtisodiyotining turli tarmoqlarida har xil rivojlangan. Jumladan, u sanoat mahsulotining 36,8 %, qishloq xo'jaligi mahsulotining 99,4 foizini beradi. Qurilishda KB ning ulushi ancha katta - 86,4 %; iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida ham uning xissasi - 78,7 %, chakana savdoda esa pastroq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hudud eksportining 3-4 foizini beradi. Ushbu sektor sub'yektlarining umumiy soni 6549 (faoliyat ko'rsatayotgani 5732)ta, ularning deyarli aksariyatini mikrofirmalar tashkil qiladi.

Viloyat hududlari doirasida ham KB ancha tafovutlarga ega. Masalan, Yangiyer va Shirin shaharlari, Mirzaobod tumanida 81-97 % sanoat mahsuloti KB korxonalarida ishlab chiqariladi. Eng past ko'rsatkichlar Oqoltin, Guliston va Sardoba tumanlarida kuzatiladi. Qishloq xo'jaligida kichik biznesning mavqei ayniqsa Oqoltin, Sayxunobod, Mirzaobod, Guliston tumanlarida baland - 100 %. Qurilish ishlarida bu ko'rsatkichlar Boyovut va Oqoltin tumanlari hamda Yangiyer shahrida 99 %, uning nisbatan past darajasi Shirin shahri va Sidaryo tumanida qayd etilgan.

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiya katta ahamiyatga ega. 2021-yilda Sirdaryo viloyatiga respublika jami investitsiya hajmining 2,3 foizi kiritilgan. Bu esa hududda qurilish ishlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Mintaqada ko'rilayotgan yilda olib borilgan qurilish ishlarining hajmi mamlakat umumiy ko'rsatkichlariga nisbatan 1,5 foizini tashkil qilgan. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqoridagi har ikki ko'rsatkich ham respublikada eng past miqdordir. Sanoat bo'yicha viloyat Xorazm bilan bir darajaga ega bo'lsa, qurilish ishlarida eng oxirgi o'rinda turadi.

Sanoati. Yuqorida qayd etilganidek, Sirdaryo viloyatida sanoat uncha rivojlanmagan, uning tarmoqlari va hududiy tarkibi ham mukammal ko'rinishga ega emas. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarida 2021-yilda 9,5 ming kishi band bo'lgan. Sanoat ishlab chikarishining tarmoqlar tarkibi quyidagicha: mashinasozlik va metalni qayta ishlash - 0,9%, qurilish materiallari sanoati — 1,9 %, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash - 0,4 % va x. k. yengil sanoat (asosan, paxta tozalash zavodlari) jami sanoat mahsuloti hajmining 56,1 foizini ta'minlaydi, oziq-ovqat sanoati - 25,6 % va un-yorma, omixta yem 11,0 foizini beradi. Boshqa tarmoqlar orasida farmatsevtika sohasining ulushi ko'proq.



Sanoat geografiyasida Gulistonning hissasi 13,6 %, Yangiyer shahriniki - 3,2 %. Qishloq tumanlari orasida bu iqtisodiyot tarmog'i ayniksa Sirdaryo tumanida yaxshi rivoj toptan - 33,2 %. Bu yerda Xitoy Xalk Respublikasi bilan xamkorlikda kurilayotgan "PENG SHENG" qo'shma korxonasi katta axamiyatga ega. Sayxunobod tumanining xissasi 15%, Oqoltin, Guliston, Boyovut tumanlarining ulushlari xam ko'zga tashlanadi. Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Xovos hamda Mirzaobod tumanida kuzatiladi. Xalq iste'mol mollarini ishlab chikarishda xam hududiy tafovutlar deyarli shunday; ularning 45,6 foizi Sirdaryo tumani, foizini Guliston shahri beradi. Shuningdek, Sayxunobod tumanining mavqei xam birmuncha yuqoriroq. Viloyat sanoatining hududiy tashkil kilinishida Guliston shaxrini sanoat markazi sifatida ajratish mumkin. Shuningdek, Sirdaryo, Yangiyer **shaharlari xam xuddi shunday maqomga ega. Bu shaharlarda mintaqaning** yirik sanoat korxonalari: yog'-moy va qurilish materiallari korxonalari joylashgan. Axoli soni bo'yicha birmuncha kichik sanoat markazlari kagorida Shirin va Baxt shaharlari turadi. Yuqoridagilardan tashkari, Sirdaryo shaxridagi sut zavodi va qurilish materiallari korxonalari, tibbiyot sohalari uchun momiq-paxta, doka, bint, dori-darmonlar ishlab chikaruvchi korxonalarni xam qayd etish joiz.

Umuman olganda, Sirdaryo viloyatida garchi sanoat ishlab chikarishi yaxshi rivojlanmagan bo'lsa-da, bu yerda ushbu tarmoqning juda katta korxonalari barpo etilgan. Bu esa bozor munosabatlari va mintakalar iqtisodiy mustaqilligi sharoitida birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, Guliston shahrida o'tgan asrning 70-yillarida qurilgan yog-moy kombinatining loyiha quvvati 1 sutkada 1200 tonna paxta chigitini qayta ishlashga mo'ljallangan, bunday xom ashyo esa bugungi kunda viloyatning o'zida mavjud emas. Xuddi shunday, bir vaqtlar paxta xom ashyosini kayta ishlash uchun yetishtirilgan paxta boshka viloyatlarga, hatgo Farg'ona vodiysi paxta tozalash zavodlariga jo'natilar edi, endi esa viloyatning o'zida ishga tushirilgan paxta tozalash zavodlariga xom ashyo ozlik kiladi. Shu qatorda, mintaqada kurilgan yirik sanoat korxonalarining, jumladan Sirdaryo IES ning atrof-muhitga ekologik ta'sirini xam inkor etib bo'lmaydi.

Sirdaryo viloyati respublikamizning asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan va shu maqsadda tashkil etilgan ma'muriy hududi hisoblanadi. Biroq hozirgi vaqtda, xususan sobiq



Ittifoq parchalanishi va “umumittifoq mehnat taqsimoti”ning barxam topishi bilan viloyat iqtisodiyotida jiddiy muammolar yuzaga keldi. Bunday sharoitda, eng avvalo, mintaqa iqqisodiyotini diversifikatsiyalash, paxta yakka hokimligini yo'qotish, ishlab chiqarishning yuqori texnologik pogonalarini tashkil qilishdek jiddiy vazifalar paydo bo'ldi. Mustaqillik yillarida bu va shunga o'xshash masalalar bosqichma-bosqich hal etib borilmoqda. Viloyat katta yer maydoniga ega emas; uning jami maydoni 427,6 ming gektar bo'lib, shundan 290,4 ming gektari yoki 67,9 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Bu respublikamizning qator hududlariga qaraganda ancha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 92,4 foizini sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi. Bu ham Xorazm, Andijon viloyatlariga o'xshash nihoyatda yuqori ko'rsatkichdir. Demak, Sirdaryoda yer-resurs salohiyatidan intensiv foydalanish koeffitsiyenta ancha katta.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar xissasi Oqoltin, Guliston, Sardoba tumanlarida nisbatan yuqori, sug'oriladigan maydonlar esa Oqoltin, Xovos, Sayxunobod kabi tumanlarda 95-100 foizni tashkil qiladi. yerlarni sug'orish maksadida viloyatda qator irrigatsiya infratuzilma shaxobchalari, jumladan, magistral'' kanal va ariklar qazilgan (Sarkisov nomli Janubiy Mirzacho'l, Do'stlik kanali va uning markaziy hamda chap, o'ng irmoqlari, Jizzax mashina kanali, 1 va 2 mashina kanali). Shuningdek, yangi yerlar o'zlashtirilgan boshqa mintaqalarga xos bo'lgan kator kollektor va drenajlar, tashlamalar xam kurilgan. Masalan, Markaziy, 1 va 2 - Sardoba, Boyovut, Sho'ro'zak va boshqa kollektorlar, Sharqiy tashlama va h.k. Kanal, kollektor va tashlamalar viloyat irrigatsiya va melioratsiya infratuzilmasining o'zagini tashkil etadi. Kanallar viloyatning janubida ko'prok bo'lsa, kollektorlar uning quyi va markaziy kismlarida zichroq joylashgan. Ekin ekiladigan yerlar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan maydonlarning o'rtacha 86,5 foizini egallaydi. Bu ko'rsatkich, ayniksa, Oqoltin va Sayxunobod tumanlarida yuqori, uning birmuncha pastrok xolati esa Xovos tumaniga tegishli. Ko'pgina mintakalardan farq qilib, bu yerda yaylov va pichanzorlar maydoni uncha katta hududni egallamaydi- o'rtacha 7,1 %. Uning nisbatan ko'prok ulushi Mirzaobod va Boyovut tumanlarida kuzatiladi.

Viloyat qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 64,3 foizini dexkonchilik beradi. Fermer xo'jaliklarining agroiqtisodiyot tizimidagi ulushi 41,3 %. Bu respublikamizda eng



yuqori ko'rsatkichlardan hisoblanadi. 2020-yilda viloyatda jami 242,2 ming gektar yerga turli xil ekinlar ekilgan (2010 yilda 260 ming ga). Donli ekinlar 101,5 ming gektarni egallagan (2010 yilda 217 ming ga). SHu yilda jami 444 ming tonna bugdoy olingan; uning xosildorligi 48,1 s/ga bo'lgan. Donli ekinlardan viloyatda kisman sholi ham ekiladi. Ushbu ekin turiga 5,0 ming ga yer ajratilgan bo'lib, undan 37,0 ming t xosil olingan (xosildorlik o'rtacha 46,5 s/ga).

Paxta har yili taxminan 105-110 ming gektar maydonda yetishtiriladi, yalpi xosil 240-250 ming tonna atrofida. Qayd etish lozimki, paxtaning xosildorligi yuqori emas - atigi 23,2 s/ga. Demak, viloyat paxtachiligining iqtisodiy samaradorligi uncha katta emas. Yana shuni ta'kidlash kerakki, viloyatda paxta ekin maydonlari yildan-yilga qisqarib bormoqda. Bu ijobiy xol bo'lib, paxtadan bo'shagan yerlarga galla, poliz, sabzavot ekiladi. Agar 2000 yilda paxtazorlar barcha ekin maydonlarining 53,1 foizini egallagan bo'lsa, 2013-yilda bu rakam 44,2 foizga tushgan.

Sirdaryoda azaldan polizchilik, xususan qovun, tarvuz yetishtirish ("Mirzacho'l qovunlari") yaxshi rivojlangan. 2013-yilda poliz maydonlari ming gektarga teng bo'lgan va 250 ming tonnaga yaqin hosil olingan. Bu yerda sabzavotchilik xam rivojlanib bormoqda: maydoni 4,0 ming ga, yalpi hosili - 218 ming tonna. Bog'dorchilik va uzumchilik Sirdaryoda nisbatan sustroq tashkil etilgan: bog'dorchilikka 5,6 ming ga, uzumzorlarga 1,6 ming ga yer ajratilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Sirdaryo viloyati kech o'zlashtirilganiga qaramay omilkor aholisi, yetarli darajada suv resurslari bilan ta'minlanganligi hamda muhim tabiiy va iqtisodiy geografik o'rinda joylashganligi bois respublika iqtisodiyotida keying yillarda salmoqli rol o'ynamoqda. Kelajakda qo'shma dasturlar orqali viloyat qishloq xo'jaligi intensive tarzda rivojlanishi prognoz qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.P. Baratov "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" -T: O'qituvchi, 1996.
- 2.A. Soliyev "O'zbekiston geografiyasi" -T: Universitet, 2014.



3.Asanov G., Nabixonov M., Safarov I “O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy jog’rofiyasi-
T: O’qituvchi,1994

4.Karshibayeva L.K. Madraximova Z.N. Sirdaryo viloyati ishlab chiqarish kuchlarini
hududiy tashkil etishda energiya ishlab chiqarish tsikllar nazariyasi va uning ekologik
ahamiyati // Ekologiya xabarnomasi. 4–son. -Toshkent, 2017, -B.25-28.

5.Altibayeva Mukhaya, Karshibayeva Lola, Madrahimova Zulfiya. Impast of surface
water on the develoment of service networks of Sirdarya region // Electronic journal of
actual problems of modern science, education and training. December, 2022 -12 ISSN 2181-
9750, -pp. 58-63. (Ургенч электрон журнали)

6.www.sirstat.uz

